

**AYRIM TURDAGI TOVARLARNI TIF TN BO'YICHA TASNIFLASH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MEZONLARI
(85-GURUH TOVARLARI MISOLIDA)**

Murzayev Rustam

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi
Markaziy bojxona laboratoriyasi boshlig'i o'rinbosari.

Qobulova O'g'ilbegi

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining
Bojxona instituti magistratura bosqichi tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21109066>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi ayrim turdagi tovarlarni TIF TN bo'yicha tasniflash mezonlari, xususan 85-guruh tovarlarini tasniflashda uchrayotgan muammolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: TIF TN, tovarlarni tasniflash, 85-guruh tovarlari, elektr mashina va uskunalar, transformator, bojxona ekspertizasi, tasniflash mezonlari.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlarni TIF TN bo'yicha to'g'ri tasniflash bojxona rasmiylashtiruv jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. To'var kodi bojxona to'lovlari miqdorini aniqlash, tarif va notarif tartibga solish choralarini qo'llash, tashqi savdo statistikasini yuritish hamda bojxona nazoratini samarali tashkil etishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda texnologik mahsulotlar, elektr uskunalari va maishiy elektrotexnika vositalari importi jadal sur'atlarda ortib bormoqda.

Ayniqsa, TIF TNning 85-guruhiga kiruvchi tovarlar murakkab texnik tuzilishga ega bo'lib, ularni tasniflashda tovarning funksional vazifasi, texnik tavsifi, ishlash prinsipi va tarkibiy qismlarini kompleks baholash talab etiladi.

Jahon bojxona tashkiloti tavsiyalariga ko'ra, tovarlarni tasniflashda TIF TNning asosiy qoidalariga qat'iy amal qilish zarur.

Biroq amaliyotda ayrim mahsulotlarning ko'p funksiyali xususiyatga egaligi, texnik hujjatlarning yetarli emasligi yoki noto'g'ri taqdim etilishi natijasida tasniflashda turli yondashuvlar yuzaga kelmoqda.

85-guruh tovarlari tarkibiga elektr mashinalari, generatorlar, transformatorlar, maishiy elektrotexnika vositalari, telekommunikatsiya uskunalari va boshqa zamonaviy qurilmalar kiradi.

Mazkur tovarlar bo'yicha noto'g'ri tasniflash bojxona to'lovlarning noto'g'ri hisoblanishiga, tashqi savdo statistikasi ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Amaliyotda transformatorlarni yirik texnologik uskunalar bilan birgalikda olib kirishda ularni alohida tasniflash yoki asosiy uskunaning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish masalasi bahsli holatlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, havo tozalash qurilmalari, ko'p funksiyali maishiy texnika vositalari hamda elektr bloklerini tasniflashda ham qiyinchiliklar kuzatiladi.

Muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda ishlab chiqaruvchi kataloglari va texnik hujjatlar yetarli darajada taqdim etilmaydi.

Natijada bojxona organlari tomonidan qo'shimcha ekspertiza tayinlash zarurati tug'iladi.

Bu esa rasmiylashtirish muddatlarining uzayishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, 84 va 85-guruhlar o'rtasidagi chegaraviy holatlar bo'yicha aniq tushuntirishlarning yetarli emasligi amaliyotda turlicha yondashuvlarga olib kelmoqda. Shu sababli tasniflash mezonlarini takomillashtirish va yagona amaliyotni shakllantirish zarur.

Muammolarni bartaraf etish maqsadida 85-guruh tovarlari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, bahsli tovarlar uchun namunaviy tasniflash qarorlarini ishlab chiqish hamda bojxona ekspertizasi amaliyotini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, bojxona xodimlari uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, texnik hujjatlar bilan ishlash bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, 85-guruh tovarlarini TIF TN bo'yicha to'g'ri tasniflash bojxona ma'murchiligi samaradorligini oshirish, davlat budjeti tushumlarini ta'minlash hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, 84 va 85-guruhlar o'rtasidagi chegaraviy holatlar bo'yicha aniq tushuntirishlarning yetarli emasligi amaliyotda turlicha yondashuvlarga olib kelmoqda. Shu sababli tasniflash mezonlarini takomillashtirish va yagona amaliyotni shakllantirish zarur.

Muammolarni bartaraf etish maqsadida 85-guruh tovarlari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, bahsli tovarlar uchun namunaviy tasniflash qarorlarini ishlab chiqish hamda bojxona ekspertizasi amaliyotini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, 85-guruh tovarlarini TIF TN bo'yicha to'g'ri tasniflash bojxona ma'murchiligi samaradorligini oshirish, davlat budjeti tushumlarini ta'minlash hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi: rasmiy matn. – T.: O'zbekiston, 2016. – 173 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.04.2022-yildagi PF-115- son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 12.10.2022-yildagi PQ-392-son.
4. WCO Handbook on Inward and Outward Processing Procedures, World Customs Organization, may 2017.
5. European Union Special Procedures of Processing (Inward and Outward Processing) and Temporary Admission, WTO Trade Facilitation Committee, Note from the European Commission.
6. <https://president.uz>
7. <https://customs.uz>
8. <https://stat.uz>